

**YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA AYOLLARNING
JAMIYATDAGI O'RNI**

Arzimatova I.M.

FarDU dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Annotasiya Maqolada mamlakatimizda xotin-qizlarni asrab-avaylash, hurmat-ehtirom ko'rsatish, ularni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, siyosiy faolligini oshirish, kasbiy, jismoniy, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, bugungi yangi taraqqiyot sharoitida jamiyatda xotin-qizlarning nufuzi, mavqeining tobora oshib borayotganligi masalasi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: davlat va jamiyat, madaniy daraja, xotin-qizlar, ayollarning oila va jamiyatdagi mavqeい, islohotlar davri, rahbar ayollar, komil inson.

Barchamizga ayonki, dunyoda davlat va jamiyatning nufuzi, madaniy darajasini ko'rsatadigan mezonlar ko'p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma'naviy kamolotini yaqqol aks ettiradigan shunday mezon borki, u ham bo'lsa jamiyatning xotin-qizlarga bo'lган munosabati, hurmati bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni asrab-avaylash, hurmat-ehtirom ko'rsatish, ularni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, siyosiy faolligini oshirish, kasbiy, jismoniy, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish hamda onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalariga davlat siyosati darajasida doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev rahnamoligida aynan ushbu yo'nalishda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida ayollarning oila va jamiyatdagi mavqeい tobora mustahkamlanib bormoqda. Natijada ular bugun mahallalar, oilalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, hayot tashvishlari va muammolarini sabr-toqat, oqilalik bilan hal etish, farzandlarimizni barkamol insonlar sifatida tarbiyalash barobarida,

mamlaktimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida ro‘yobga chiqarilayotgan yangilanishlar jarayonida faol qatnashib kelishmoqda. “Hozirgi globallashuv davrida xotin-qizlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligini oshirish davr talabiga aylanmoqda” [1].

Bugun ayollar masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, O‘zbekiston yangi islohotlar davrida ularni boshqaruv lavozimlariga tayinlash, saylash va saylanish huquqlari qonun bilan mustahkamlanganligi va ularni nafaqat ijtimoiy masalalarni o‘rganish ob’ekti, balki xalq xo‘jaligining barcha sohalarida o‘z iqtidorini namoyon etish qobiliyatiga egaligi e’tirof etilayotganligi muhim hisoblanadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Ayni vaqtida ijtimoiy faol ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlab borish, ularni o‘qitish, malakasini oshirish tizimi yaratilmoqda. Bularning barchasi davlatimizda xotin-qizlar harakati katta salohiyat va istiqbolga ega ekanini ko‘rsatadi”[2].

Bizga tarixdan ma’lumki, podsholar shahzodalar tarbiyasini iymon-insofli, bilimli, dono ayollarga topshirganlar. Farzandlar ularning pand-nasihatlari va saboqlaridan ibrat olib komil inson bo‘lib ulg‘ayganlar. O‘zbeklarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining bosh mezoni sifati ayol millat ko‘zgusi bo‘lgan. Bizgacha To‘maris mardlik-shijoatlilik, Saroymulkxonim aql-zakovat, Gulbadanbegimdan mehr-oqibat, Arjumandbonudan sevgi-vafoni, Zebunisobegimdan saxovatpeshalikni, Nodirabegim, Zulfiyaxonimdan sadoqat va oilaparvarlikni meros qoldirgan o‘zbek ayollarining salohiyati bizni bugungi kunda qanday millat vakilasi ekanligimizni har qadamda namoyon qilmoqda.

Mamlakatimizda ayollarga bo‘lgan e’tiborni shundan bilishimiz mumkinki, 1999 yilni “Ayollar yili”, 2000 yilni “Sog‘lom avlod yili”, 2001 yilni “Onalar va bolalar yili”, 2005 yilni “Sihat-salomatlik yili”, 2012 yilni “Mustahkam oila yili”, 2013 yilni “Obod turmush yili”, 2016 yilni “Sog‘lom ona va bola yili” va 2021 yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, 2022 yil “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” va 2023 yilni “Insonga e’tibor va

sifatli ta'lif yili" Davlat dasturlarining tub mohiyati hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida ham ayolga hurmat, ehtirom, uning sog'lom kamoloti xususida bir qator ishlar ustuvor vazifa etib belgilangan. Jumladan, Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilab qo'yilgan xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan ustuvor yo'naliishlarni amalga oshiruvchi adolatli tizim yaratildi.

Mo'tabar ayollarimizga ko'rasatilayotgan g'amxo'rlik opa-singillarimizni yanada faollikka, intilishu-izlanishlarga undaydi. Uyda – oqila, jamiyatda – faol, tadbirkor, ishbilarmon ayollar oila bilan jamiyatni birlashtirib, unga fayz-baraka va ezgulik nurini taratishdek ulkan vazifani bajarishda bardavom bo'ladilar.

Bugungi kunda O'zbekistonda ayol rahbarlar faoliyati jadal rivojlanib bormoqda va ular turli sohalarda muhim lavozimlarni egallab, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarga hissa qo'shmoqdalar. Quyida bu boradagi aniq faktlar keltirilgan: O'zbekiston Respublikasidagi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, davlat boshqaruv tizimida va turli soha rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushi oshib bormoqda. 2023 yilda davlat idoralari va tashkilotlarida ayollar umumiyligi rahbarlik lavozimlarining 30% dan ortig'ini egallagan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ayollar ulushi ham yuqori darajada. 2021 yilgi saylovlar natijasida parlamentda ayol deputatlar ulushi 32% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich xalqaro standartlarga muvofiq keladi va gender tengligi borasidagi muhim qadam hisoblanadi.

2020 yildan boshlab O'zbekistonda ayollar hukumatda vakillik qilishda ancha faol bo'lmoqda. Masalan, Tanzila Narbaeva O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi etib saylangan bo'lib, bu mamlakat tarixidagi ilk ayol Senat raisi hisoblanadi.

Ayollar tadbirkorlik sohasida ham faol rol o'ynamoqda. 2023 yilga kelib, tadbirkorlikda faoliyat yuritayotgan ayollar ulushi 27% ga etgan. "Tadbirkor ayollar" harakati va boshqa turli dasturlar orqali ayollar uchun tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmonlari bilan ayollar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ular uchun yangi imkoniyatlar yaratish borasida bir qator dasturlar qabul qilindi. Masalan, 2021-2023 yillarda "Ayollar uchun 500 ming ish o‘rni yaratish" dasturi qabul qilingan bo‘lib, bu orqali ayollar uchun yangi ish o‘rinlari va lavozimlar ochilmoqda.

Ayollar nafaqat davlat boshqaruvida, balki jamoat tashkilotlarida ham faol ishtirok etmoqda. Ular oilaviy muammolar, ijtimoiy masalalar va mahalliy hokimiyat organlarida qaror qabul qilish jarayonlarida faol rol o‘ynayaptilar. Bu faktlar O‘zbekistonda ayollar faoliyatining samaradorligi va ularning turli sohalardagi ishtiroki jadal rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2019. - B. 160-161.
2. Mirziyoev Sh. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2019. – B. 108-109.